



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalimirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub‘ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

Шу билан бирга, кичик тadbirkorlik субъектлари учун солиқ қонунчилигидаги ўзгаришларни хавфини минималлаштириш, молиявий санкция ва жарималар қўлланишини олдини олиш мақсадида, молия ва солиқ органлари томонидан Солиқ кодексининг шарҳини тайёрлаш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси.
3. Jarkko Harju, Tuomas Kosonen “The impact of tax incentives on the economic activity of entrepreneurs”, National bureau of economic research, 1050 Massachusetts Avenue, Cambridge, MA 02138, October 2012.
4. Nirupama Rao, Timothy Simcoe. Tax Incentives for Research and Development: Policy Design and Evidence. 25 april 2025 y. <https://www.nber.org/books-and-chapters/entrepreneurship-and-innovation-policy-and-economy-volume-5/>.
5. William G. Gale and Samuel Brown. Small Business, Innovation and Tax Policy: A Review. April 5, 2013. <https://www.brookings.edu/articles/small-business-innovation-and-tax-policy-a-review>.
6. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг расмий сайти. <https://www.stat.uz>.
7. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://www.lex.uz>.

UDK: 338.242.4

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN’S ECONOMIC TRANSFORMATION

Arziyev Mo‘ydinjon Abduraxmonovich
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Iqtisodiyotining jadal sur‘atlarda rivojlanishi, aholining hayot darajasining yuksalishi ko‘p jihatdan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning istiqboli bilan chambarchas bog‘liqligi, jahon amaliyotida oilaviy tadbirkorlikning ilmiy asoslarini o‘rganishga alohida ahamiyat berilayotganligi, oilalarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash, daromad olish manbalarini kengaytirish, yosh avlodning mehnat qilish, jismoniy va ma‘nan yetuk bo‘lishini ta‘minlashga erishilishi, O‘zbekiston qonunchiligida oilaviy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash va sug‘urtalash nazarda tutilishi kerakligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oilaviy tadbirkorlik, oilaviy korxona, oilaviy tadbirkorlik ustunliklari, aholi bandligi, oila xo‘jaligi, oila xo‘jaligi mulki, oila xo‘jaligi jamg‘armalari, iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi, iqtisodiyotni liberallashtirish, oila tadbirkorligini qo‘llab – quvvatlash, imtiyozli kreditlash, marketing tadqiqotlari.

Подчеркивается, что стремительное развитие экономики, повышение уровня жизни населения во многом тесно связаны с перспективами малого бизнеса и семейного

предпринимательства, что особое значение придается изучению научных основ семейного предпринимательства в мировой практике, что развитие предпринимательства в семьях позволяет обеспечить занятость населения, расширить источники дохода, гарантировать трудовую, физическую и духовную зрелость молодого поколения, и что законодательство Узбекистана должно предусматривать льготное кредитование и страхование субъектов семейного предпринимательства.

Ключевые слова: Семейное предпринимательство, семейное предприятие, преимущества семейного предпринимательства, занятость, семейная экономика, собственность в семейной экономике, сбережения в семейной экономике, трансформация экономики, либерализация экономики, поддержка семейного предпринимательства, льготное кредитование, маркетинговые исследования.

It is emphasized that rapid economic development and rising living standards are closely linked to the prospects of small businesses and family entrepreneurship. It emphasizes the importance of studying the scientific foundations of family entrepreneurship in global practice. The development of family entrepreneurship ensures employment, expands income sources, and guarantees the labor, physical, and spiritual maturity of the younger generation. Furthermore, Uzbek legislation should provide for preferential lending and insurance for family businesses.

Key words: Family entrepreneurship, family enterprise, advantages of family entrepreneurship, employment, family economy, property in the family economy, savings in the family economy, economic transformation, economic liberalization, support for family entrepreneurship, preferential lending, marketing research.

Mamlakatimizda aholining bandligi va daromadlarining barqaror o‘shishini ta’minlashga doir vazifalarini hal etishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga yanada ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab – quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi farmonining 4-bandida yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida:

- oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi;

- 2024-yil 1-iyundan boshlab “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi belgilab berildi.

Bunda, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla — tuman — viloyat — respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g‘oyalari saralanishi bu yerda, nogironligi bo‘lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g‘oyalari alohida e’tibor qaratilishi, respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishi hamda g‘olib bo‘lgan biznes loyiha va g‘oyalar egalari Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi belgilab berildi.[1]

Zotan, mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur‘atlarda rivojlanishi, aholining hayot darajasining yuksalishi ko‘p jihatdan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning istiqboli bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shulardan kelib chiqib, ushbu sohani rivojlantirish ustuvor vazifalarda belgilab qo‘yildi. Bunda oilaviy tadbirkorlikning nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda balki aholi bandligi va farovonligini ta’minlashdagi ijtimoiy samarasidan kelib chiqqan holda, bu sohani qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari joriy qilinmoqda. Xususan, ularni qo‘llab-quvvatlashda amaldagi me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, bank kreditlarining maqbul foizlarda berilishi va soliq sohasidagi imtiyozlarning yanada kengaytirilishi kabi chora-tadbirlar ular faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Har qanday iqtisodiy tizim sharoitida uy xo‘jaliklari davlat uchun muhim va hal qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘lgan. Bozor iqtisodiyoti

sharoitida ham uy xo‘jaliklari, xususan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi natijasida oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni oshib boradi.

Ko‘pchilik kishilar o‘zlarining boshlang‘ich iqtisodiy bilimlarini aynan oilalarda olishadi. Oila a‘zolari bilan birgalikda tadbirkorlik qilish ularning nafaqat umumiy muammolarini birgalikda hal qilishga, balki bir-biriga o‘zaro yordam qilish tuyg‘ularini shakllanishiga, kichik avlod vakillarining malakalarini oshirishga va kelajakda ularni amaliyotda qo‘llash uchun kattalardan o‘rnak olishlariga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaliklarining muhim funksiyalaridan biri oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish bo‘lib hisoblanadi. «Oilaviy tadbirkorlik — bu oilaviy jamg‘armadan optimal darajada foydalanishga asoslangan, foyda olishga yo‘naltirilgan tashabbusli mustaqil faoliyatdir. Oilaviy kapital bu yerda oila a‘zolarining ham jismoniy, ham ijtimoiy, moliyaviy va intellektual kapitallari sifatida namoyon etilgan»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2024 yildagi PQ-149-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorida aholining bandligini ta‘minlash va daromad topishga qaratilgan faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida, 2024 yil 1 apreldan boshlab dasturlar doirasida kreditlar o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno), quyidagicha ajratilishini ko‘zda tutadi :

— 33 million so‘mgacha, bir yildan so‘ng ushbu qarz oluvchining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi, qarzning maqsadli ishlatilganligi hamda zaruratga qarab guruh kafilligi (kamida 3 nafar fuqaro) bilan qo‘shimcha 50 mln so‘mgacha revolver asosida;

- ushbu kreditlardan tomorqani rivojlantirishning bir nechta yo‘nalishlarida (parrandachilik, quyonchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik va ixcham issiqxona) foydalanishi uchun;

- yer maydoni 10 sotixdan ortiq bo‘lgan tomorqa yer egalari va ijarachilarga 50 mln so‘mgacha garovsiz;

- 10 sotixli ixcham issiqxonalarni barpo etish va baliqchilik faoliyatini tashkil etish uchun 100 mln so‘mgacha garovsiz ajratilishi belgilab berildi.

Bunda, chorvachilikni rivojlantirish yo‘nalishida kreditlar tuman (shahar) veterinariya bo‘limi tomonidan identifikatsiya qilingan (birkalar usuli) va haqiqatdan etkazib berilgan chorva mollari (qoramol, qo‘y, echki) sotib olishga;

aholi tomorqasida biznesni yo‘lga qo‘yish uchun o‘zlarining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda tadbirkorlik qilishni istagan aholiga issiqxona qurish, chorva mollari boqish, tomorqaga mavsumiy ekinlar ekish uchun kreditlar birlashtirilgan bank va hokim yordamchisining ushbu tadbirlar amalga oshirilishi borasidagi kafilligi asosida naqd pulda berilishi mumkinligi belgilandi.[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19 — martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni oshirish chora -tadbirlari to‘g‘risida“ gi PF-50-son farmoni va yana bir qancha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ta‘kidlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-son farmonining 6-ilovasida 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, kambag‘allik darajasini 5 foizdan pastga tushirish hamda O‘zbekistonni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiritish bo‘yicha barcha imkoniyatlar yetarli ekanligi, ushbu ustuvor maqsadlarga erishishda barqaror iqtisodiy o‘rta o‘rta darajadagi bo‘lgan kichik va o‘rta biznes uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning yashovchanligini oshirish hamda yiriklashishini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etishligi, bugungi kunda 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar va 905,8 ming kichik va o‘rta korxonalar faoliyat ko‘rsatayotganligi, mazkur sohada 10,5 million aholi band bo‘lib, jami band aholining 74 foizi tashkil etganligi ko‘rsatib o‘tiladi. [3]

Mazkur qarorda belgilangan imtiyozli kreditlarni ajratilishi, ayniqsa qishloq yoshlarini bandligini ta‘minlash va daromad manbalarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoit va keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, hozirda faoliyat yuritayotgan ko‘plab mashhur korxonalar dastlab ilk faoliyatini oilaviy korxona shaklida tashkil etganligini aytish mumkin. Jumladan, 18-asr boshlarida o‘z faoliyatini qahva sotishdan boshlagan «Dalmayr» oilaviy korxonasi, 1853 yilda tashkil etilgan «Tissot» markali soatlarni ishlab chiqaruvchi «Sharl Tisso va o‘g‘li» oilaviy korxonasi, Fransiyaning “Myule oilasiga taalluqli “ASHAN” supermarketlar tarmog‘i (130 mingdan ortiq xodimga ega va yillik daromadi 23 mlrd. dollardan oshadi) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

“Pricewaterhouse Coopers” va “Family Capital” kompaniyalari tomonidan 2018 yil ma’lumotlari asosida oilaviy korxonalar reytingi ishlab chiqildi. Daromadlar ko‘pligi bo‘yicha amerikalik Uoltonlar oilasiga taalluqli “Walmart” oilaviy korxonasi 495 mlrd. dollar daromad bilan 1-o‘rinni egalladi.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida oilaviy tadbirkorlikning ilmiy asoslarini o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, xalqaro miqyosda uchta maxsus jurnal nashr etilmoqda: “Journal of Family Business Strategy” (Elsevier), “Family Business Review” (Sage) va “Journal of Family Business Management” (Emerald). Shuningdek, xalqaro oilaviy tadbirkorlik tadqiqotlari akademiyasi (IFERA) faoliyat yuritmoqda. Oilaviy tadbirkorlik – jahon miqyosida eng ko‘hna va keng tarqalgan biznes-instituti hisoblanadi. Shu bois, oilaviy tadbirkorlik ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotida alohida o‘ringa ega. Xususan, Buyuk Britaniyada u barcha firmalarning 75 foizini, aholi bandligi va YAIMning qariyb 50 foizini ta’minlaydi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida oilaviy korxonalar barcha korxonalarning 85 foizini, Ispaniyada barcha korxonalarning 75 foizini, YAIMning 65 foizini tashkil etadi. AQSHda esa – barcha turdagi korxonalarning 90 foizini, YAIMning 60 foizini oilaviy korxonalar tashkil etadi. Italiyada 2-3 kishidan iborat oilaviy hunarmandchilik korxonalari jami eksportning 18 foizini tashkil etib, bandlik va iqtisodiy o‘lishda muhim o‘rin tutadi.[3] Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakatlar kesimi bo‘yicha yirik oilaviy korxonalar reytingi shakllantirilganda, AQSH (170 shunday korxona), Germaniya (119), Xitoy (57) va Rossiyaning (11) korxonasi kiritildi.

Shuningdek, Niderlandiyada ro‘yxatdan o‘tgan Italiyalik Anelli va Ford oilalari tomonidan boshqariladigan “Exor xolding” kompaniyasi, katta oilalar tomonidan boshqariladigan nemis avto ishlab chiqaruvchisi “BMW”, AQSHning “Dell” kompyuter ishlab chiqaruvchisi, Janubiy Koreyaning “LG” texnologik korporatsiyasi va Shveysariyaning “Roche” farmatsevtik korxonalari ham ushbu reytingdan o‘rin olgan.[4,5,6]

AQSHda firmalar o‘rtasida so‘rovlar tez-tez o‘tkazib turilib, ularda muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablari sifatida ko‘pincha quyidagilar keltiriladi: 1) chuqur bilimga ega emaslik, tajribaning muvofiqligi (masalan, tajribali muhandis, lekin tajribasiz tijoratchi), tijorat, moliya, yetkazib berish, ishlab chiqarish va boshqarish sohalarida tajribaning yetishmasligi; 2) sotuvlar hajmining kichikligi; 3) raqobat; 4) tranzaksiya xarajatlarining juda kattaligi. Biroq ko‘pincha kompaniyalar kapital yoki investitsiyalarning etishmasligidan emas, balki hal etilmagan boshqaruv muammolari tufayli o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Axborot ta’minoti qiyin, ularga ko‘pincha marketing tadqiqotlari o‘tkazish uchun vositalar etishmaydi. Bu oilaviy korxonalarni bozorda noqulay holatga qo‘yadi. Shuning uchun kichik biznesni (shu jumladan, oilaviy korxonalarni), davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning mukammal tizimini yaratish – uni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Oilalarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda aholi bandligini ta’minlash, ular daromad olish manbalarini kengaytirish, bozor iqtisodiyotining zamonaviy talablariga moslashish ko‘nikmalarining soliq to‘lovchilar sonini oshirish, yosh avlodning mehnat qilish, jismoniy va ma’nan yetuk bo‘lishini ta’minlashga erishiladi. Mamlakatimizda oilalarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida xalqaro tajribalarni o‘rganish, bu borada olib borilayotgan islohotlar samarasi, uning hududlar kesimida bajarilishining amaliy holati tahlili keltirish va aniqlangan muammolar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Oilaviy korxonaga mablag‘lar oqimi zarur. Imtiyozli kreditlash davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dongdor, nufuzli yirik korxonalarga bank hamisha yordam beradi. Kichik korxonaga esa, ayniqsa endigina ish boshlayotgan korxonaga

odatdagi sharoitlarda kredit berishi amri mahol. Shuning uchun O‘zbekiston qonunchiligida oilaviy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash va sug‘urtalash nazarda tutilishi kerak.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyotida oilaviy tadbirkorlik – eng keng tarqalgan iqtisodiyot sektori hisoblanadi, uning rivoji iqtisodiy o‘shishga, yalpi ichki mahsulotning hajmiga, asosan aholi bandligi hamda daromadiga katta ta’sir etadi. Bu yerda gap nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlar haqida boryapti – ushbu omil o‘z mohiyatiga ko‘ra bozorga xos bo‘lib, zamonaviy bozor infratuzilmasining ustuvor rivojlanishini talab qiladi. Bu esa ushbu sohada subyektlarni iqtisodiy inqirozdan saqlashda ko‘mak beradi.

Oilaviy tadbirkorlikning asosiy ustunliklari va xususiyatlari quyidagilardan iborat: a) qulay va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati. Yirik korxonalar bilan qiyoslashtirilganda oilaviy biznesda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tuzilmalari soddalashtirilgan bo‘lib, bu bozor konyunkturasiga xos o‘zgarishlarga tezda moslashish imkonini beradi; b) ishlab chiqaruvchilarning ko‘proq shu hududdagi bozorga yo‘naltirilganligi. Oilaviy tadbirkorlik qoidalar, urf-odatlar va mahalliy bozorning boshqa xususiyatlarini o‘rganish uchun g‘oyat mos keladi; v) bandlikni saqlab turish va yangi ish o‘rinlari barpo etish. Ushbu muammo O‘zbekiston uchun ham o‘ta dolzarb hisoblanadi; aholi sonining doimo oshib borishi ortiqcha ishchi kuchi ko‘payishiga olib kelmoqda, oila tadbirkorligi esa bo‘sh ishchi kuchini o‘ziga olib, amortizator rolini o‘ynashi mumkin; g) yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajarish. Yirik korxonalar negizida ishlab chiqarish jarayonining bosqichlarini oilaviy korxonalarga topshirgan holda mazkur jarayonni markazlashtirilgan boshqaruv tizimidan chiqaradi; d) dastlabki investitsiyalarning kichik hajmi. Oilaviy korxonalarni tuzish muddatlari qisqa; ular tez va arzon qayta jihozlanishi, yangi texnologiyalarni joriy etishi va ishlab chiqarishni avtomatlashtirishi, mashina va qo‘l mehnatining optimal uyg‘unligiga erishishi mumkin; e) oilaviy korxonalarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘ladi.; j) oilaviy korxonalarning innovatsion xususiyati. Aksariyat iqtisodchilar kichik biznes fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.[7,8,9]

Fikrimizcha, xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlik rivojlanishini davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- oilaviy tadbirkorlik faoliyatining dastlabki bosqichlarida ularni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma muassasalarini rivojlantirish (kichik moliyalashtirish banklari, maxsus fondlar, konsalting – axborot markazlari va b.);

- oilaviy tadbirkorligini boshlash maqsadida bo‘lgan ayollar va yoshlarga bu sohaga kirib kelish va o‘z ishini boshlash uchun ularni qo‘llab-quvvatlovchi turli tadbirlar va o‘qishlar tashkil etish;

- oilaviy tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat moliyasidan, moliyaviy, moddiy-texnika va axborot resurslaridan hamda fan-texnika ishlanmalari va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga samarali sharoitlar yaratish;

- oilaviy tadbirkorlikni ro‘yxatga olish, ular faoliyatini litsenziyalash, mahsulotini sertifikatlash, davlat statistika va buxgalteriya hisobotlarini taqdim etishning soddalashtirilgan elektron tizimini keng joriy etish;

- oilaviy tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan savdo, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

- oilaviy korxonalar uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbekiston-2030 strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab – quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. 2024 yil 21 fevral.PF-37-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. ”Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024 yil 2 fevral, PQ-149-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora -tadbirlari to‘g‘risida“ 2025-yil 19 – mart, PF-50-son farmoni
4. Kuvondikov.Sh.O. Oilaviy tadbirkorlik: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2020. – 4 bet.
5. V.G‘ofurov, X.X.Abduraxmonov, D.T.Yuldashev, M.Sh.Xalilov, Q.B.Sharipov. Mahallalarda aholi bandligi darajasini oshirishda oilaviy tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish.Toshkent-2022.FDU ”Nusxa ko‘paytirish bo‘limi” 26-27 b.
6. B.B.Berkinov. “Oilaviy tadbirkorlikning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari“. Maqola. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 4-son, 2018 yil.
7. Sh.O.Kuvandikov. Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik: monografiya / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 — 276 bet.
8. Arziyev M.A. O‘zbekistonda oilaviy biznesni tashkil etishdagi muammolar va uni rivojlantirish mexanizmlari.Maqola. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi 2025-6/2.17-21 b.
9. Arziyev M.A. “Oziq ovqat xavfsizligini ta‘minlashda oilaviy tadbirkorlikni o‘rni” – Farg‘ona-2025. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.172-174 b.

UDK: 332.3:502.17(045)

**EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI YERLARNI OQILONA BOSHQARISHNING
TASHKILIY VA IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ РАЦИОНАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫМИ РЕСУРСАМИ
НА ОСНОВЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ**

**IMPROVING ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF RATIONAL
LAND MANAGEMENT THROUGH ENVIRONMENTAL INNOVATIONS**

Maxkamova Sayyora Shokirovna

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti assistent
FDTU mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekologik innovatsiyalar asosida yer resurslarini oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Yer resurslaridan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash hamda agrar sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy rag‘batlantirish usullari, institutsional mexanizmlar va ekologik boshqaruv instrumentlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida yer resurslarini boshqarish tizimini ekologik innovatsiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik innovatsiyalar, yer resurslari, yerlarni oqilona boshqarish, tashkiliy mexanizmlar, iqtisodiy mexanizmlar, barqaror rivojlanish, ekologik boshqaruv, agrar sektor, resurs samaradorligi.

В статье исследуются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов рационального управления земельными ресурсами на основе экологических инноваций. Рассмотрены теоретические и практические аспекты эффективного использования